

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2013–2014-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 4-SINF O'QUVCHILARI UCHUN  
ONA TILI, MATEMATIKA, JISMONIY TARBIYA  
FANLARIDAN O'TKAZILADIGAN BOSQICHLI  
IMTIHON MATERIALLARI VA METODIK  
TAVSIYALAR TO'PLAMI**

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent–2014

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta’lim markazi huzuridagi “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-metodik kengashda muhokama qilinib, nashrnga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15–20% hajmda o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchilar:**

#### **ONA TILI VA MATEMATIKA**

*N. Ahmedova* – RTM boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i;

*B.Pardayev* – Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchisi;

*M.Jumayev* – Nizomiy nomidagi TDPU professori;

*S.Burxonov* – Toshkent shahar 200-maktab o‘qituvchisi;

*M.Jalilova* – Olmaliq shahar 18-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

### **Taqrizchilar:**

*A.Sadikova* – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti;

*Z.Muratova, M.Yusupova* – RTM bosh metodistlari;

*G.Saydaliyeva* – Toshkent shahar 96-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

*D.Yakubova* – Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanidagi 34-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

#### **JISMONIY TARBIYA**

*F.Nadjimov* – RTM bosh metodisti.

#### **Nashr uchun mas’ul**

*N.Turdiyev*

Imtihon materiallarini ko‘paytirib tarqatish ta’qiqlanadi.

---

## 4-sinf ONA TILI

2013–2014 o‘quv yilida umumiy o‘rtalim maktablari 4-sinf o‘quvchilari bosqichli imtihonda ona tili fanidan grammatick topshiriqli diktant yozadilar. O‘quvchilarning imlo va ishoraga oid savodxonligini aniqlashda diktantning o‘rnini muhim bo‘lib, ta’lim samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadining aniqligi hamda metodning izchilligiga ko‘ra belgilanadi.

Bosqichli nazorat imtihon diktanti matni o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metodbirlashmasi hamda maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi. O‘qituvchi tomonidan tanlangan nazorat diktanti matni Vatan, mustaqillik, milliy g‘oyalari, do‘stlik, odob-axloq, ahillik, hurmat, kamtarlik, e’tiborlilik kabi fazilatlar, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularga oid bo‘lib, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish bilan birga, bilim doirasini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Nazorat materiallari variantlar ko‘rinishida oldindan ko‘paytirilib, 7 ta konvertga solinadi va maktab rahbariga joriy yilning 15-aprelijacha topshiriladi.

### **Diktantni o‘tkazish tartibi**

O‘quvchilarning imtihonga hozirligi ko‘zdan kechirilgach, o‘qituvchi o‘quvchilar diqqat-e’tiborini jalb qilgan holda diktant matnini bir marta ifodali o‘qib beradi.

Matnni talaffuz me’yorlariga rioya qilib ifodali o‘qish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishga va matnnning mazmuni hamda tarbiyaviy ahamiyatini o‘quvchilar ongiga singdirishga yordam beradi.

O‘qituvchi matndagi imlosi qiyin so‘zlarni yozuv taxtasiga yozib, talaffuz va imlosini qisqa izohlaydi. Keyin o‘qituvchi yozuv taxtasiga, o‘quvchilar esa o‘z daftarlariga sana va sarlavhani tartib bilan, har birini xatboshidan yozadilar. Shundan so‘ng matn aytib yozdiriladi. Shuni ta’kidlash zarurki, so‘zni bo‘g‘inlab yoki so‘zma-so‘z aytib turish mumkin emas. Har bir so‘z birikmasi, gap ko‘pi bilan uch marta takrorlanishi mumkin. Matnda o‘quvchilar yozishi qiyin bo‘lgan yoki o‘rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan qiyin so‘zlar uchrasa, o‘qituvchi uni xattaxtaga yozib beradi. O‘qituvchining yozuv taxtasiga yozib beradigan so‘zlar ikki yoki uchtadan oshmasligi kerak. Diktant yozib bo‘lingach, o‘quvchilar diqqatini jalb qilgan holda o‘qituvchi matnni sekinroq sur‘at bilan yana bir marta ifodali o‘qib beradi. O‘quvchi o‘z xatosini topsa, uni to‘g‘rilashiga yoki tushirib qoldirilgan so‘zni yozishiga imkon beriladi. So‘ng o‘quvchilar yozganlarini yana bir marta ichida o‘qib tekshiradilar. Shundan so‘ng grammatick topshiriqlarni mustaqil ravishda o‘zlarini bajaradilar.

## **Grammatik topshiriqlar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘ladi:**

1. *Tovush va harflarga ko‘ra tahlil.*
2. *So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.*
3. *So‘z turkumlari yuzasidan tahlil.*
4. *Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil.*
5. *Leksik tahlil.*

## **Diktantni baholash**

Maktab ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda imlo savodxonligini tarkib toptirishdir. Ushbu vazifa yozma ishlar, xususan, diktant orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning imlo va ishoraga oid savodxonligini aniqlashda diktantning o‘rni muhim bo‘lib, ta’lim samaradorligi, mavzu va uning mazmuni, maqsadining aniqligi hamda metodning izchilligiga ko‘ra belgilanadi. Diktant hozirgi o‘zbek adapib tili me’yoriy talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan bo‘lib, sinf o‘quvchilari uchun tushunarli bo‘lishi va bog‘lanishli matn asosida tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Diktant hajmi 4- sinfda 75 – 80 so‘zdan iborat bo‘lishi nazarda tutiladi.

Har bir o‘quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. *Imloviy savodxonlik darajasi.*
2. *Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatalishi.*
3. *Xatboshilariga rioxasi qilinishi.*
4. *Tovush va harflarga ko‘ra tahlil.*
5. *So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.*
6. *So‘z turkumiga ko‘ra tahlil.*
7. *Gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil.*
8. *Yozuvning husnixat talablariga mosligi.*
9. *Diktant matniga tuzatish kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.*

Bosqichli imtihon nazorat ishini baholashda tekshiriladigan BKM larning har biri, ularning sonidan qat‘i nazar 5 ball bilan baholanadi. Bajarilgan BKM elementlarining ballar yig‘indisi NI dagi elementlar soniga bo‘linib, o‘rtacha qiymati chiqariladi. O‘rtacha ball nazorat ishining haqiqiy bali hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgandek, o‘quvchi DTS asosida nazorat ishida belgilangan beshta BKM elementlaridan to‘rtasimi bajargan bo‘lsa, bunda to‘plagan 20 ball beshsa bo‘linib, nazorat ishining haqiqiy bali chiqariladi.

Bosqichli imtihonni o‘tkazish uchun quyida nazorat diktantlari matnlaridan namunalar keltirildi.

## **Do‘ppi**

Bir kuni Nozimjonning onasi chiroyli do‘ppi olib berdi. Nozimjon do‘ppini kiyib, maydonchaga chiqdi. Uni Ravshanjon kutib turgan edi.

Ikki o‘rtoq o‘ynay boshladilar. Biroq Ravshanjon Nozimjonning do‘ppisiga havas bilan qarab-qarab qo‘yar edi. Buni o‘zi bilmasdi. Ammo Nozimjon sezardi.

O‘rtoqlar uylariga qaytishdi. Nozimjon onasiga do‘ppini kiymasligini aytdi. Uni boshidan olib qo‘ydi. So‘ng onasiga bunday do‘ppi o‘rtog‘i Ravshanda

yo‘qligini aytdi. Ertasi kuni Nozimjonning onasi Ravshanjonga ham shunaqa do‘ppi olib berdi. Ravshanjon Nozimjonning onasiga sovg‘a uchun minnatdorchilik bildirdi. (76 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. “*Do‘ppi*” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
2. “*Maydonchaga*” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “*Ikki o‘rtoq o‘ynay boshladilar*” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “*Nozimjon do‘ppini kiyib, maydonchaga chiqdi*” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “*Havas*” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### **Otabekning ahdi**

Otabek – ajoyib bola. U futbol o‘ynayotgan bolalarni ko‘rsa, ko‘zlar chaqnab ketadi. Otabek katta bo‘lganda futbolchi bo‘lishni orzu qiladi.

Otabekning tug‘ilgan kuni bo‘ldi. Uyga ammasi, tog‘asi, xolasi va boshqa mehmonlar kelishdi. Tog‘asi unga bir quti shokolad berdi. Otabek “rahmat” deb sovg‘ani oldi. Uni dasturxonga qo‘ydi. Ammasi ham sovg‘a uzatdi. Otabek “rahmat” aytib, sovg‘ani oldi. Sovg‘a futbolchilar kiyadigan kiyim ekan.

Otabek shu kundan boshlab o‘rtog‘i Saidjon bilan futbol mashg‘ulotlariga qatnay boshladi. U kelajakda futbolchi bo‘lishga ahd qildi. (77 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. “*Ajoyib*” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
2. “*Mashg‘ulotlariga*” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “*U kelajakda futbolchi bo‘lishga ahd qildi*” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “*Otabek katta bo‘lganda futbolchi bo‘lishni orzu qiladi*” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “*Mashhur*” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### **Quyosh sevgan yurt**

Quyosh moviy tog‘lar ortidan bosh ko‘taribdi. Bog‘dagi gullar unga salom berishibdi. Daraxtlar shoxida qushlar sayrabdi. Yaproqlar quyoshni olqishlabdi. Butun olam uning saxiy nuridan bahramand bo‘libdi.

Ko‘hna Turon zaminida insonlar qalbini yorituvchi quyoshlari bor. Bular Amir Temur, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiylar!

Bu yurt mustaqil yurt! O‘ziga xon, o‘ziga bek yurt! Bu yurtning odamlari juda mehnatkash! Ular har yili umid bilan nihol ekishadi. Men ularni parvarishlayman. Qizil olmalarda o‘z aksimni ko‘rganday bo‘lamani. (78 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

1. “*Quyosh*” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.

2. “Olmalarda” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “Bog‘dagi gullar unga salom berishibdi” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “Yaproqlar quyoshni olqishlabdi” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “Mustaqil” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### Favvoralar

Favvoralar yozning issiq kunlarida o‘zining muzdek suvi va toza havosi bilan insonlarga xush kayfiyat baxsh etadi.

Qadim zamonalarda ham saroylarda favvoralar bo‘lgan. Samarqand atrofida Amir Temur barpo etgan Dilkusho bog‘ida favvora bo‘lgan. Ispaniya elchisi bu favvoraga havas qilgan. U favvoradan qizil olmalar qalqib chiqqanligini o‘z xatida tasvirlagan. Ajodolarimiz yaratgan mo‘jizaviy san‘at namunalari juda chiroyli ekanligini tarixchilar o‘z asarlarida yozishgan. Musavvirlar esa rasmlarini chizishgan.

Toshkentda Alisher Navoiy, Xadra, Mustaqillik maydoni, Temuriylar tarixi davlat muzeyi atrofida favvoralar qurilgan. (77 so‘z)

### Grammatik topshiriqlar

1. “Favvora” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
2. “Atroflarida” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “U favvoradan qizil olmalar qalqib chiqqanligini o‘z xatida tasvirlagan” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “Musavvirlar esa rasmlarini chizishgan” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “Chiroyli” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### Tez yordam

Dilorom mактабдан kelayotgan edi. Terakning shoxida turgan Bahodirni ko‘rib qoldi. U shoxga ilingan varrakka qo‘l uzatardi. Birdan shox sinib, Bahodir yiqilib tushdi. Dilorom qo‘rqib ketdi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Biroz vaqt o‘tgach, o‘ziga keldi. Bahodir esa behush yotardi. Uning peshonasi qonagan edi. Atrofda hech kim yo‘q.

Dilorom ro‘molchasini Bahodirning peshonasiga yopib, o‘zi Sharofat xolaning uyiga yugurdi. Sharofat xola tez yordam chaqirdi. Bahodirni kasalxonaga olib ketishdi.

Dilorom uyiga keldi. Onasiga bo‘lgan voqeani so‘zlab berdi. Onasi qizidan xursand bo‘ldi. (78 so‘z)

### Grammatik topshiriqlar

1. “Behush” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
2. “Ro‘molchasini” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “Bahodir esa behush yotardi” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.

- “Onasi qizidan xursand bo‘ldi” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling
- “Xursand” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### **Tut ko‘chati**

Bahor. Ko‘chat ekishning ayni vaqt edi. Men tut ko‘chati ekishni orzu qilardim. Shuning uchun buvimlardan ko‘cha eshik oldiga tut ko‘chati ekishni iltimos qildim.

Ertasi kuni buvim bilan bozorga bordik. Buvim ikkita tut ko‘chatini tanladilar. Uni uyga olib keldik. Men o‘rtoqlarimni chaqirdim. Buvim bolalarga ko‘chatlarni ekishni o‘rgatdilar. U hosilga kirkach, bolalarni mehmon qilmoxchi bo‘ldilar. Bolalar sevinib ketishdi. Ular tezda ishga tushdilar. Ko‘p o‘tmay chuqurcha paydo bo‘ldi. Bolalarning biri suv quydi, boshqasi tuproq tortdi.

Yillar o‘tdi. Tut ko‘chatlari hosilga kirdi. (80 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

- “Bahor” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
- “O‘rtoqlarimni” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
- “Buvim ikkita tut ko‘chatini tanladilar” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
- “Buvim bolalarga ko‘chatlarni ekishni o‘rgatdilar” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
- “Sevinib” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

### **Ulug‘ bobomiz**

Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy Hirot shahrida tavallud topdi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad o‘g‘lining tarbiyasiga katta ahamiyat berdi. Alisher yoshligidan ko‘p kitob o‘qidi. U yetti-sakkiz yoshdanoq she’rlar yoza boshladi. U mukammal bilim egasi, shoir va davlat arbobi bo‘lib tanildi. Navoiy obodonchilikka doir ishlar qildi. Ariq qazib, suv keltirdi, bog‘lar yaratdi. Masjid va madrasalar qurdirdi.

Bobomizning hayot yo‘li vatandoshlarini baxtli etish, mamlakatni obod qilishdan iborat bo‘ldi. Bobomiz tinchlik uchun ko‘p vaqt sarflaganlar.

Bunday fidoyilik bugungi kunda ham barcha insonlarga ibratdir. (80 so‘z)

### **Grammatik topshiriqlar**

- “Tavallud” so‘zini harf va tovushlarga ko‘ra tahlil qiling.
- “Vatandoshlarini” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
- “U yetti-sakkiz yoshdanoq she’rlar yoza boshladi” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
- “Ariq qazib, suv keltirdi, bog‘lar yaratdi” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
- “Ulug‘” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

---

---

## 4-sinf

### MATEMATIKA

### Tushuntirish xati

4-sinfda bosqichli imtihon o'tkazishning asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'lif bosqichining bitiruv sinfida o'quvchilarning matematik tayyorgarlik darajasini tekshirishdan iborat.

2013–2014-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lif maktablarining 4-sinf o'quvchilari matematika fanidan bosqichli imtihonni yozma ish tarzida topshiradilar. Imtihindan beriladigan nazorat materiallari konvertga solinadi va maktab rahbariga 15-aprelgacha topshiriladi.

Bosqichli nazorat imtihonida o'quvchilarga bittadan muhrlangan katak daftar beriladi. O'quvchilar esa o'zlari bilan chizg'ich, ruchka va qalam olib keladilar. Ta'lif muassasalarida o'quvchilarga matematika chuqurlashtirib o'qitilishi yoki kuchliroq sinflar bo'lishini hisobga olib nazorat materiallari ikki xil ko'rinishda tayyorlandi. Ulardan qaysi birini tanlash o'qituvchi taklifiga binoan metod birlashmada hal etiladi. Nazorat ishini o'tkazish jarayonida o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarishlarini ta'minlash uchun nazorat materiallari dagi variantlar soni 7 ta qilib tayyorlangan. Nazorat ishi variantlari har bir o'quvchiga alohida varaqda tarqatiladi. Agar sinfda 36 nafr o'quvchi bo'lsa, 7 xil variant 1 dan 36 gacha raqamlab chiqiladi. Bunda 1-variant 8-, 15-, 22-, 29-, 36-variantlar bilan, 2-variant 9-, 16-, 23-, 30-variantlar bilan bir xil bo'ladi va hokazo. Demak, 1-variant 6 nusxada, qolgan variantlar 5 nusxada, variant raqami ko'rsatilmagan holatda ko'paytirib olish kerak bo'ladi. O'quvchilar variantlar soni aslida 7 ta ekanligini sezmasliklari kerak.

Variantlar tarqatilganidan so'ng o'qituvchi zaruriy tushunchalar beradi va vaqtini belgilab doskaga yozib qo'yadi. Yozma ishni o'tkazish uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu davrda o'quvchilar hisoblash ishlarini, tenglama yechish va boshqa topshiriqlarni yozma ravishda bajaradilar.

Matematikadan bosqichli nazorat ishi yordamida DTS va o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Har bir variant beshta topshiriqdan iborat bo'lib, har bir topshiriq bo'yicha yozilgan javob 5 ballik reyting tizimida baholanadi. 5 ta topshiriq bo'yicha to'plangan ballar jamlanib, 5 ga bo'linadi va yaxlitlanadi. Yaxlitlangan o'rtacha ball imtihonning haqiqiy bali hisoblanadi va sinf jurnaliga qo'yiladi.

Quyida nazorat ishi variantlari ikki ko'rinishda berildi.

## 1-ko‘rinish

### 1-variant

1. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{ll} 64217 - 8759 & 48738 + 1787 \\ 607 \cdot 17 & 8400 : 10 \quad 7 \text{ km } 484 \text{ m} : 4 \end{array}$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$x + 54 = 102 \quad x \cdot 14 = 84$$

3. Samolyot bir shaharga 2 soat, keyingisiga esa 5 soat uchdi. U ikkinchi shaharga yetib borishda birinchisiga qaraganda 2400 km ortiq masofa uchib o‘tdi. Samolyot jami qancha masofani o‘tgan?

4. Uchburchakning perimetri 40 sm, bir tomonining uzunligi 15 sm, ikkinchi tomoni 12 sm bo‘lsa, uchinchi tomonini toping.

5. Oralaridagi masofa 80 km bo‘lgan ikki qishloqdan bir vaqtida ikki otliq bir -biriga qarab yo‘lga chiqdi. Ulardan biri soatiga 18 km, ikkinchisi 22 km tezlik bilan yuradi. Oqliqlar necha soatdan keyin uchrashadi?

### 2-variant

1. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{ll} 47861 - 8127 & 47289 + 3457 \\ 4200 : 10 & 10 \text{ m } 77 \text{ sm} : 3 \end{array} \quad 207 \cdot 7$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$x - 67 = 94 \quad 13 \cdot x = 91$$

3. Omborga birinchi mashinada 2750 kg, ikkinchisida 1900 kg un qoplarda keltirildi. Birinchi mashinada ikkinchisiga qaraganda 17 qop un ko‘p yuklangan bo‘lsa, har qaysi mashinaga ortilgan qoplar sonini toping.

4. To‘rtburchakning uchta tomoni 4 sm, 7 sm, 5 sm va perimetri 24 sm bo‘lsa, to‘rtinchi tomonining uzunligini toping.

5. Bir qishloqdan qarama-qarshi tomonga velosipedchi va mototsiklchi bir vaqtida yo‘lga chiqdi. Agar velosipedchi 1 soatda 18 km va mototsiklchi 1 soatda 42 km yo‘l bossa, 3 soatdan so‘ng ular orasidagi masofa qancha bo‘ladi?

### 3-variant

1. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{ll} 18792 - 3786 & 28941 + 6487 \\ 7400 : 100 & 2 \text{ t } 76 \text{ kg} : 4 \end{array} \quad 826 \cdot 8$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$57 + x = 271 \quad x : 21 = 12$$

3. Oshxonaga birinchi kuni 168 dona, ertasiga 120 dona ichimlik suvi bloklarda keltirildi. Ikkinci kuni birinchi kuniga qaraganda 4 ta blok kam keltirilgan bo‘lsa, ikki kunda jami nechta blokda suv olib kelgingan?

4. Bo‘yi 6 sm, eni undan 2 marta qisqa bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Uning perimetrini va yuzini toping.

5. Bir qishloqdan qarama-qarshi tomonga velosipedchi va mototsiklchi bir vaqtida yo'lga chiqdi. Agar velosipedchi 1 soatda 14 km va mototsiklchi 1 soatda 54 km yo'l bossa, 3 soatdan so'ng ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

#### 4-variant

1. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 52812 - 6879 & 38677 + 9466 & 1284 : 6 \\ 41 \cdot 20 & 4 \text{ sr } 65 \text{ kg} : 5 & \end{array}$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$94 - x = 36 \quad 108 : x = 27$$

3. Tikuvchi ikki kunda 18 ta fartuk tikdi. Fartuklar tikish uchun birinchi kuni 20 m, ikkinchi kuni 16 m gazlama sarfladi. Tikuvchi birinchi kuni nechta fartuk tikkani? Ikkinchi kuni-chi?

4. Bo'yи 6 sm, eni undan 3 marta qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak berilgan. Uning perimetritini toping. Perimetri shunga teng bo'lgan kvadrat chizing.

5. Yozgi ta'til davomida 680 nafar bola oromgohda dam oldi. Iyun oyida 240 nafar, iyulda esa 275 nafar bola dam olgan bo'lsa, avgust oyida necha nafar bola dam olgan?

#### 5-variant

1. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 34614 - 6817 & 26483 + 7948 & 2198 : 7 \\ 401 \cdot 50 & 3 \text{ km } 64 \text{ m} : 4 & \end{array}$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$x - 58 = 83 \quad 84 = x \cdot 12$$

3. Orasidagi masofa 310 km bo'lgan ikki shahardan bir-biriga qarab ikki mototsiklchi bir vaqtida yo'lga chiqishdi. Birinchisining tezligi 36 km/soat, ikkinchisiniki esa 32 km/soat. Birinchi mototsiklchi 108 km yo'l bosib o'tganida, ular orasidagi masofa necha km bo'ladi?

4. Bo'yи 8 sm, eni undan 2 marta qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak berilgan. Uning perimetritini toping. Perimetri shunga teng bo'lgan kvadrat chizing.

5. To'pda 80 m beqasam bor. Undan bir xaridorga 18 m, ikkinchi xaridorga 26 m beqasam sotilganidan keyin to'pda necha metr gazlama qolgan? Masalani ikki usulda yeching.

#### 6-variant

1. Amallarni bajaring:


$$\begin{array}{lll} 57891 - 3847 & 47892 + 3847 & 208 \cdot 18 \\ 2710 \cdot 101 & 5 \text{ m } 48 \text{ sm} : 4 & \end{array}$$

2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$105 : x + 37 = 52 \quad 78 : x = 26$$

3. Avtomobil 3 soat, avtobus esa 6 soat yo‘l yurdi. Agar avtomobilning tezligi 80 km/soat, avtobusniki esa 60 km/soat bo‘lsa, ulardan qaysi biri ko‘p masofani o‘tgan va qanchaga ko‘p?

4. Shakldagi har bir to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini hisoblang. ABCD ning yuzi qaysi to‘g‘ri to‘rtburchaklar yuzlari yig‘indisiga teng?



5. Mashina saroyida 56 ta avtomashina, ulardan 26 ta kam traktor va traktorlardan 3 marta kam kombayn bor. Masalaga o‘zingiz savol qo‘ying va yeching.

### 7-variant

1. Amallarni bajaring:

$$69107 - 3439$$

$$24907 + 7246$$

$$407 \cdot 16$$

$$4024 \cdot 203$$

$$6 \text{ m } 4 \text{ sm} : 4$$


2. Tenglamalarni yeching va javoblarini tekshiring:

$$x \cdot 107 + 37 = 358$$

$$78 : x - 13 = 13$$

3. Avtomobil tezligi 75 km/soat, mototsiklchiniki esa 37 km/soat. Avtomobil 3 soat, mototsiklchi esa 6 soat yo‘l yursa, ularning qaysi biri ko‘p masofa bosib o‘tadi va qancha ko‘p?

4. Berilgan shaklning yuzini hisoblang.



5. Nodir hovlisida 800 tup limon ko‘chati va undan 400 tup ortiq xurmo ko‘chati yetishtirdi. Agar har bir dona limon ko‘chati 150 so‘mdan va xurmo ko‘chati 180 so‘mdan sotilgan bo‘lsa, hammasi bo‘lib necha so‘mlik ko‘chat sotilgan?

### 2-ko‘rinish

#### 1-variant

1. Hisoblang:

$$(13936 : 67 + 2456 \cdot 47) - 7689$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$212 - x \cdot 14 = 128$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$70 : 5 \cdot 7 + 23 = 25$$

4. Uchta kitob javonida 164 ta kitob bor. Birinchi javonda 62 ta, ikkinchisida esa undan 8 ta kam kitob bor. Uchinchi javonda nechta kitob bor?

5. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 16 sm, eni esa undan 12 sm qisqa. Uning perimetriga teng perimetrli kvadrat chizing.

#### 2-variant

1. Hisoblang:

$$94014 - 874 \cdot 79 + 20944 : 68$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$314 - 13 \cdot x = 197$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$45 + 45 : 9 - 4 = 54$$

4. “Lasetti” avtomobilida Jizzaxdan Toshkentga borish uchun 2 soat, Toshkentdan Navoiyga esa 5 soat sarflandi. Toshkentdan Navoiygacha bo‘lgan masofa Toshkentdan Jizzaxgacha bo‘lgan masofadan 270 km ko‘p bo‘lsa, “Lasetti” 7 soatda necha km yo‘l yurganini toping.

5. Kvadratning tomoni 7 sm. Uning perimetriga teng perimetri to‘g‘ri to‘rtburchak chizing.

### 3-variant

1. Hisoblang:

$$67214 - 286 \cdot 47 + 8758 : 29$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:


$$928 : x + 976 = 1008$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$24 + 64 : 8 \cdot 8 = 256$$

4. Do‘konda 78 kg pomidor va 96 kg kartoshka bor edi. Bir kunda pomidorning uchdan ikki qismi, kartoshkaning to‘rtidan uch qismi sotildi. Qaysi mahsulotdan ko‘p sotilgan va qancha ko‘p sotilgan?

5. Uzunligi 64 m bo‘lgan hovlining yarmiga imorat solindi. Qolgan yarmining chorak qismiga yozgi ayvon qurildi. Qolgan yer maydoniga bog‘ qilib gullar ekildi. Hovlining uzunligi bo‘yicha necha metriga daraxt ekilgan?



### 4-variant

1. Hisoblang:

$$9888 : 48 + 237 \cdot 29 - 598$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$784 : (x - 36) = 28$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$96 - 24 + 12 \cdot 3 = 36$$

4. Ikki shahardan bir-biriga qarab ikki mototsiklchi bir vaqtida yo‘lga chiqishdi. Birinchisining tezligi 36 km/soat, ikkinchisiniki esa 32 km/soat. Ular 3 soat yo‘l bosib o‘tganida uchrashishdi. Ikki shahar orasidagi masofani toping.

5. Kvadratning perimetri 32 sm. Uning tomoni va yuzini toping.

### **5-variant**

1. Hisoblang:

$$5762 : 67 + 187 \cdot 46 - 3018$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$399 : x + 81 = 100$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$77 - 48 + 36 : 12 = 70$$

4. Avtomobil tezligi 65 km/soat, mototsiklchini esa 32 km/soat. Avtomobil ikki soat, mototsiklchi esa 4 soat yo‘l yursa, ularning qaysi biri ko‘p masofa bosib o‘tadi va qancha ko‘p?

5. Yuzi 36 kv.sm bo‘lgan kvadrat berilgan. Uning perimetriga teng 2 ta to‘g‘ri to‘rtburchak chizing.

### **6-variant**

1. Hisoblang:

$$40201 - 4212 : 39 \cdot 17 + 4897$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$x \cdot 42 - 57 = 111$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$96 : 48 : 12 + 12 = 36$$

4. Avtomobil 3 soat, avtobus esa 6 soat yo‘l yurdi. Agar avtomobilning tezligi 80 km/soat, avtobusniki esa 60 km/soat bo‘lsa, ulardan qaysi biri ko‘p masofani o‘tgan va qanchaga ko‘p?

5. Yuzi 16 kv.sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri necha sm bo‘lishi mumkin? Ikkita misol keltiring.

### **7-variant**

1. Hisoblang:

$$30300 - ( 231 \cdot 64 + 4944 : 48 )$$

2. Tenglamani yeching va javobini tekshiring:

$$216 - 162 : x = 162$$

3. Qavslarni shunday qo‘yingki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$$114 - 76 : 19 + 15 = 17$$

4. Avtomobil 3 soatda 252 km, mototsikl esa 4 soatda 112 km yo‘l yurdi. Avtomobil tezligi mototsikl tezligidan necha marta katta?

5. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 16 sm, eni esa undan 4 sm kichik. Uning perimetri va yuzini toping.

---

## **4-sinf**

### **JISMONIY TARBIYA**

#### **Tushuntirish xati**

Jismoniy tarbiya fanidan IV sinf o‘quvchilari amaliy va nazariy qismlaridan bosqichli nazorat imtihonlarini topshiradi.

Bosqichli nazorat imtihonini o‘tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o‘quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashdir.

Bosqichli nazorat imtihonlarini talab darajasida o‘tkazish maqsadida 10 kun oldin maktab sport maydoni (zali) va sport anjomlari, imtihon materiallari tayyorlab qo‘yilishi kerak.

Maktab direktorining buyrug‘i bilan imtihonni qabul qilish kuni, hay’at a’zolari, qo‘srimcha maslahat darslari va amaliy mashg‘ulotlar jadvali tashkil qilinadi. Bosqichli nazorat imtihoni bo‘yicha hay’at a’zolari tarkibi jami 3 kishidan iborat bo‘lib, unga imtihon raisi (maktab direktori), imtihon qabul qiluvchi (jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi), assistant (yordamchi, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi) kiradi. Shu bilan birga bosqichli nazorat imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo‘lishi shart.

Umumiy o‘rta ta’lim matabining sharoiti va mavjud sport anjomlaridan kelib chiqqan holda bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg‘ulot biletlariga 25 % gacha o‘zgartirish kiritishlari mumkin. Shu bilan birga tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan ozod etish to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga ega bo‘lgan o‘quvchilar bosqichli nazorat imtihonidan ozod etiladi. Ushbu o‘quvchilarning yakuniy ballari o‘quv yilida (choraklar davomida) olgan baholaridan kelib chiqqan holda qo‘yiladi. Mazkur masalalar matabning pedagogik kengashida ko‘rib chiqilib, muhokama etilgan bo‘lishi shart.

**Bosqichli nazorat imtihoni materiallari.** Bosqichli nazorat imtihon materiali hujjatlari har bir sinf uchun alohida (10 talik fayl) bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilar (ozod etilgan o‘quvchilar alohida) ro‘yxati; imtihon biletlari 11 ta (amaliy mashg‘ulot biletlari og‘il va qiz bolalar uchun 5 tadan, nazariy savollar 1 ta) muhrlangan konvertda bo‘lishi; imtihon dalolatnomasi (muhrlangan konvertlar o‘quvchilar tomonidan tortilib, ochilganligi xususida), bayonnoma (o‘quvchilar amaliy va nazariy qismlardan erishgan me’yor natijalari hamda ballari qayd etib borish uchun) bo‘lishi lozim.

Amaliy va nazariy qism bir kunda o‘tkazilishi, konvertlari imtihon kuni ochilishi hamda dalolatnomalar, bayonnomalari imtihon jarayonida to‘ldirib borilishi shart.

**Bosqichli nazorat imtihonining nazariy qismini o'tkazish tartibi.** Nazariy qism oldindan tayyorlab qo'yilgan sinf xonasida o'tkaziladi. Bunda nazariy qism konverti ixtiyoriy biror-bir o'quvchi tomonidan ochiladi. Har bir o'quvchi nazariy qism uchun tayyorlab qo'yilgan 30 ta savol biletlaridan bittasini tortadi hamda og'zaki javob beradi.

**Bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi.** Bosqichli nazorat imtihonining amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, ya'ni o'g'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi (5 ta) konvertlardan birini tortadi. Shu tortilgan konvertdag'i bilet bo'yicha o'z guruh a'zolari bilan ko'rsatilgan tartibda birin-ketin topshiradi. Qolgan konvertlar ochilmaydi.

**Amaliy imtihon sinovlarini qabul qilish metodikasi:**

**60 metrga yugurish.** 60 metr masofaga yugurish yo'lakchasi tekis va qoplamali bo'lishi kerak. Start, marra va yo'lakcha chiziqlari aniq chizilgan hamda masoфа to'g'ri o'lchanigan bo'lishi lozim. Yugurish past startdan amalga oshiriladi. Natija 0,1 soniyagacha aniqlanadi.

**1000 metrga yugurish.** Yugurish tekis maydonda olib boriladi. Yugurish vaqtida to'g'ri nafas olib chiqarish va yugurish qoida texnikasiga ahamiyat qaratiladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Vaqt 1 soniyagacha aniq o'lchanadi.

**4x10 metrga mokisimon yugurish.** Yugurish ikki tomonidan chizilgan, 10 metrli masoфа yo'lakcha ichida bajariladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Yugurish jarayonida burulishlarda oyoq uchlari chiziqdan o'tgan holda bajarilishi lozim.

**Turgan joyidan uzunlikka sakrash.** Sakrash chizig'i yoniga kelib, qo'llarni oldinga – yuqoriga siltab, ikki oyoqda oldinga depsinib sakraydi. Uch urinishdan eng yaxshi natijasi hisobga olinadi. Natija start chizig'idan sakrab tushgan joygacha oyoq tovon orqasidan aniq 1 sm gacha o'lchanadi.

**Arg'amchida sakrash.** Arg'amchini 1 daqiqa davomida ikki oyoqda sakrash orqali bajariladi. Sakrash jarayonida oyoq hamda boshqa tana a'zolari tegib sakrash majbur to'xtab qolsa, imtihon topshiruvchi vaqt tugagunga qadar hisobni davom ettiradi. Umumiy sakrash hisobi bayonnomaga yoziladi.

**Baland turnikda osilib tortilish.** Qo'llar to'g'ri osilib turgan holatdan (oyoqlar yerga tegmaydi) iyakni to'g'risigacha tortiladi. Qo'l tirsaklari to'liq uzatilgan holda gavda yana pastga tushiriladi. Osilib tortilishda, gavda har tomonlarga harakatlanishi, oyoqlarni bukib ko'tarib tortilishlar hamda iyakgacha bajarilmaganlari hisobga kirmaydi. To'g'ri tortilishlar soni bayonnomaga yoziladi.

**Yotgan holatda gavdani ko'tarish.** D.h – chalqancha yotish (gimnastika matida) – oyoqlar uzatilgan, qo'llar bosh orqasida, barmoqlar bir-biriga qulq qilingan holatida. Yordamchi o'quvchi imtihon topshiruvchining oyoq yuzasini polga bosib turadi. Imtihon topshiruvchi bir tekis ko'tarilib tizzaga qo'l bilaklarini tek kazadi. Orqaga harakatlanib qaytishda gimnastika matiga yelkalar to'liq tegishi lozim. 1 daqiqa davomida ko'tarilish hisobi natijalari bayonnomaga yoziladi.

**Yakkacho'p ustida muvozanatni saqlash ("qaldirg'och" turish).** O'quvchi asosiy turish holatidan qisqa qadam oldinga tashlaydi (orqadagi oyoq uchida turadi),

oldinga engashib, engashgan holatni saqlagan tarzda muvozanatni saqlab turish. Orqada turgan oyoqni imkonli boricha orqaga ko‘proq ko‘tarish. Qo‘llar yonda yoki oldinga-yonga, yoki bir qo‘l oldinga-yuqoriga, boshqasi yonga holatlarida amalga oshiriladi. Mashqni birinchi bir oyoqda, keyin ikkinchi oyoqni almashtirib bajariladi. Mashqni bajarish texnikasini e’tiborga olgan holda, talab etilgan me’yor bo‘yicha baholanadi va bayonnomaga yoziladi. Yakkacho‘p ustida oyoq uchida qo‘llar yonda muvozanat saqlab yurish, oyoq uchida ko‘tarilib burulishlar, o‘ng (chap) oyoqlarda “qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarni kerib orqaga siltanish bilan kerishib sakrab tushish.

**Basketbol.** Imtihon topshiruvchi to‘pni ko‘krakdan halqaga shitdan 3,5 metr uzoqlikdan tashlaydi. 8 imkoniyatdan aniq tushirilgan to‘plar soni hisobga olinadi.

**Voleybol.** Imtihon topshiruvchi devordan 2,5 metr uzoqlikdan turib, to‘pni yerga tushirib yubormagan holda ikki qo‘lda bosh ustidan to‘pini devorga uloqtiradi va qabul qiladi.

**Qo‘l to‘pi.** Imtihon topshiruvchi to‘pni yerga urib olib yurishni yugurish yo‘lakchasi ichida bajaradi. To‘pni yerga urib olib yurish 15 metr masofagacha bajarilib, texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**Futbol.** To‘p bilan janglorlik qilish oyoqning uchi va tizzalar bilan amalga oshirish mumkin. To‘p bilan janglorlik qilishni o‘quvchi 3 urrenishda bajarib ko‘rsatadi, shundan eng yaxshi bajarilgani hisobga olinadi va bayonnomaga yoziladi.

**Bosqichli nazorat imtihoni bo‘yicha o‘quvchilarни baholash.** O‘quvchilarni amaliy sinov mashg‘ulotlari bo‘yicha baholashda erishgan me’yorlariga ko‘ra baholanadi. Nazariy qism bo‘yicha tortilgan savolga aniq javoblari hamda jismoniy tarbiya va sportga bog‘liqlik asosida bergen ma’lumotlariga ko‘ra baholanadi. O‘quvchining har bir amaliy mashg‘ulotidan va nazariy savolga bergen javoblari 5 ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. Masalan:  $5+4+4+4+4=21:5=4.2$  yaxlitlangan holda 4 baho qo‘yiladi.

## 1. Bosqichli nazorat imtihon dalolatnomasini to‘ldirish namunasi

### D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnama, shu haqdakim 2014-yil “\_\_\_” may kuni \_\_\_ matabning 4-“\_\_\_” sinf o‘quvchilari tomonidan bosqichli nazorat imtihon konvertlari ochildi.

Biz kim dalolatnama tuzuvchilar: imtihon hay’ati raisi \_\_\_(F.I.)\_\_\_, imtihon oluvchi \_\_\_(F.I.)\_\_\_, imtihon assidenti \_\_\_(F.I.)\_\_\_ lar nazorati ostida amalga oshirildi. Sinf o‘quvchilaridan \_\_\_ nafari ishtirok etdi.

Amaliy:

O‘g‘il bolalardan \_\_\_(F.I.)\_\_\_ Bilet № \_\_\_ (imzo)  
Qiz bolalardan \_\_\_(F.I.)\_\_\_ Bilet № \_\_\_ (imzo) tortildi.  
Nazariy: \_\_\_(F.I.)\_\_\_ (imzo) tomonidan ochildi.

Imtihon hay’ati raisi: \_\_\_(F.I.)\_\_\_ (imzo)  
Imtihon oluvchi o‘quvchi: \_\_\_(F.I.)\_\_\_ (imzo) M.O‘.  
Imtihon assidenti: \_\_\_(F.I.)\_\_\_ (imzo)

2. Bosqichli nazorat imtihon bayonnomasini to'ldirish namunasi.

2014-yil \_\_\_\_ -may №\_\_\_\_\_ umumiyl o'rta ta'limg maktabi  
4 - "\_\_\_" sinf \_\_\_\_\_ (o'g'il, qiz bolalar) Bilet №\_\_\_\_\_

### BAYON NOMASI

№	O'quvchi-larning F. I.	60 m yugurish		Gimnastika		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sakrash		Nazariy		Umumiyl ball
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet №	ball	
1.	Tohirovo'ktam	10,5	5	-	4	2	4	140	4	15	4	4
2.												
3.												

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

Imtihon assistenti: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

M.O'. "\_\_\_" 2014-yil

### Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Savol mazmunan to'la ochib berilsa, fikrlari to'liq hamda aniq bo'lib, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda ifodalay olsa	5
2.	Javob mazmunan to'g'ri, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda bo'lib, lekin ikkilanish va taxmin bo'lsa	4
3.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, qisman to'g'ri bo'lib, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar to'g'ri xulosalanmagan bo'lib, xatolar ko'p bo'lsa	2
5.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, xatolar ko'p bo'lsa	1

## Amaliy mashg‘ulotlarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari bajarilishi ketma-ketlik asosida va ular o‘rtasidagi bog‘lanish to‘g‘ri ishonchli bajarilgan bo‘lib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa	5
2.	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog‘liq holda bajarilib, 1–2 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa	4
3.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3–4 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa	3
4.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3–4 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa. Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz’iy qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yilsa	2
5.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar bajarilishida qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etilmasa, harakat sust bo‘lib, mashq to‘liq bajarilmasa	1

### Nazariy savollar

1. O‘quvchining shaxsiy gigiyenasi va kun tartibini aytib bering.
2. O‘zbekistonda ommaviy sport turlari qaysilar?
3. “O‘zbekiston iftixorlari” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan 10 nafar sportchilarni sanab, sport turlarini aytib bering.
4. Chiniqish nima va uning turlari haqida aytib bering.
5. Qo‘l to‘pi o‘yini maydoni, o‘yinchilar soni, darvoza o‘lchami, to‘p og‘irligi va aylanasi haqida aytib bering.
6. “Alpomish va Barchinoy” maxsus test sinovlari haqida tushuncha bering.
7. Yengil atletika va uning turlari.
8. Sport o‘yinlarining turlari haqida aytib bering.
9. Gimnastika mashqlarini bajarishda qanday sport anjomlaridan foydalaniladi?
10. Yurish va yugurish nimasi bilan farq qiladi?
11. Kross va marafon nimasi bilan farq qiladi?
12. Saf deb nimaga aytildi va saf mashqlariga nimalar kiradi?
13. Yurish va yugurishga ta‘rif bering.
14. Qanday suzish usullari mavjud va ularning harakatlanish jarayonlarini farqlab bering.
15. Arg‘amchida sakrash mashqini bajarganda qanday jismoniy sifatlar rivojlanadi?
16. Voleybol o‘yini qachon va qayerdan kelib chiqqan?
17. Akrobatika mashqlari qanday sifatlarni rivojlantiradi?
18. Gimnastika va uning turlari.

19. Jismoniy mashqlarni bajarishda to‘g‘ri nafas olishning usullarini aytib bering.
20. Futbol o‘yini qachon va qayerdan kelib chiqqan?
21. Olimpiada o‘yinlari haqida aytib bering?
22. “Umid nihollari” sport musobaqasi haqida tushuncha bering.
23. Jismoniy sifatlarga ta’rif bering.
24. Sport o‘yinlari (voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi) va ularning farqlari nimada?
25. O‘quvchining shaxsiy va jamoat gigiyenanasini aytib bering.
26. Jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
27. Quyoshda chiniqish deganda nimani tushunasiz?
28. Mashg‘ulot jarayonida shikastlanishning oldini olish va birinchi yordam ko‘rsatish qanday amalga oshiriladi.
29. 10 ta umumrivojlantiruvchi mashqlarni ko‘rsatib, ularga ta’rif bering.
30. Arqonga tirmashib chiqish usullari va ularni bajarish tartibini aytib bering.

### **Amaliy sinov – mashg‘ulot**

**(qiz bolalar uchun)**

#### **1-bilet**

**1. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 10,8 – 11,3 – 11,8 – 12,3.

**2. Gimnastika.** Arg‘amchida 1 daqiqqa davomida sakrash.

**Me’yor:** (marta) 70 – 60 – 50 – 45.

**3. Qo‘l to‘pi.** To‘pni yerga urib olib yurish, 15 metrga yugurish texnikasini bajarish.

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.

**Me’yor:** (sm) 80 – 70 – 60 – 50

#### **2-bilet**

**1. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 10,8 – 11,3 – 11,8 – 12,3.

**2. Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umbaloq oshish. “Ko‘prik” hosil qilish.

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**3. Basketbol.** To‘pni ko‘krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 8 imkoniyatdan.

**Me’yor:** (aniq tushirilgan to‘plar soni, marta) 3 – 2 – 1.

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me’yor:** (metr) 18 – 15 – 13 – 10.

#### **3-bilet**

**1. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0

**2. Gimnastika.** Gimnastika o‘rindig‘iga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish.

**Me’yor:** (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini ikki qo‘lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to‘pni ikki qo‘llab yuqoridan qaytarish.

**Me’yor:** (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

**Me’yor:** (sm) 260 – 230 – 200 – 170.

#### **4-bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash

**Me’yor:** (sm) 260 – 230 – 200 – 170.

**2. Gimnastika.** Yakkacho‘p ustida qo‘llarni turli holatlarda harakatlantirib va oyoq tagidan qarsak chalib yurish. “Qaldirg‘och” hosil qilish.

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini ikki qo‘lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to‘pni ikki qo‘llab yuqoridan qaytarish.

**Me’yor:** (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

**Me’yor:** (daqiqa) 6,00 – 6,30 – 7,00 – 7,30.

#### **5-bilet**

**1. Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.

**Me’yor:** (sm) 140 – 120 – 100 – 80.

**2. Gimnastika.** Gardishni 1 daqiqagacha belda aylantirish.

**Me’yor:** (marta) 55 – 50 – 40 – 30.

**3. Basketbol.** Basketbol to‘pini yo‘nalishini o‘zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish (Ilon izi).

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**4. Yengil atletika.** 4x10 ga mokisimon yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0.

#### **(o‘g‘il bolalar uchun)**

##### **1-bilet**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me’yor:** (metr) 27 – 25 – 23 – 20.

**2. Gimnastika.** Baland turnikda tortilish.

**Me’yor:** (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

**3. Futbol.** Futbol to‘pining yo‘nalishini o‘zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish.

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**4. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 10,5 – 11,0 – 11,5 – 12,0.

##### **2-bilet**

**1. Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.

**Me’yor:** (sm) 160 – 140 – 120 – 100.

**2. Gimnastika.** Arg‘amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

**Me’yor:** (marta) 60 – 50 – 40 – 35.

**3. Qo‘l to‘pi.** To‘pni yerga urib olib yurish, 15 metrga yururish texnikasini bajarish.

**Me’yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

**Me'yor:** (daqqa) 5,30 – 6,00 – 6,30 – 7,00.

### 3-bilet

**1. Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.

**Me'yor:** (soniya) 10,5 – 11,0 – 11,5 – 12,0.

**2. Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umboloq oshish. “Ko‘prik” hosisil qilish.

**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

**3. Basketbol.** To‘pni ko‘krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 7 imkoniyatdan.

**Me'yor:** (aniq tushirilgan to‘plar soni, marta) 3 – 2 – 1.

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

**Me'yor:** (metr) 27 – 25 – 23 – 20.

### 4-bilet

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 300 – 260 – 230 – 200.

**2. Gimnastika.** Polga qo‘llar bilan tayangan holda qo‘lni bukish va yozish.

**Me'yor:** (marta) 10 – 8 – 6 – 4.

**3. Futbol.** Futbol to‘vida jangliyor qilish.

**Me'yor:** (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

**4. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.

**Me'yor:** (soniya) 11,0 – 11,5 – 12,0 – 12,5.

### 5-bilet

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.

**Me'yor:** (sm) 90 – 80 – 70 – 60.

**2. Gimnastika.** Qo‘llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda, 1 daqqa davomida gavdani ko‘tarib o‘tirish.

**Me'yor:** (marta) 15 – 13 – 8 – 5.

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pni ikki qo‘lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to‘pni ikki qo‘llab qaytarish.

**Me'yor:** (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

**4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.

**Me'yor:** (daqqa) 5,30 – 6,00 – 6,30 – 7,00.

---

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.2009.

2014-yil 7-fevralda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. Tayms garniturasi. Ofset bosma.

1,25 shartli bosma tobog‘i. 1,12 nashr tobog‘i.

raqamli buyurtma. Adadi 90 000 nusxa.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.